



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI




2022-yil yanvar-dekabr

BUXORO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI


2023- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Buxoro viloyatida 2023- yil 1- yanvar holatiga doimiy aholi soni **2 009,8 ming kishini** tashkil etib, yil boshigan **32,9 ming kishiga** yoki **1,7 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **740,5 ming kishini** (jami aholi sonidagi ulushi **36,8 %**), qishloq aholisi soni **1 269,3 ming kishi** (**63,2 %**)ni tashkil etdi.



Yosh guruhlari bo'yicha aholi

2023- yil 1- yanvar holatiga



2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining **29,3 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **58,1 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **12,6 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Doimiy aholi soni

2 009,8 *ming kishi*

Tabiiy o'rish

+36,0 *ming kishi*

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil 1-yanvar holatiga

Shahar



36,8%

Qishloq




63,2%

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2023- yil 1- yanvar holatiga

Erkaklar



50,1%

1 007,3 *ming kishi*

Ayollar



49,9%

1002,5 *ming kishi*


Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1-yanvar holatiga, ming kishi

	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	1 976,8	2 009,8	101,7
Buxoro sh.	283,8	289,2	101,9
Kogon sh.	62,3	63,8	102,4
<i>tumanlar:</i>			
Olot	101,4	102,8	101,4
Buxoro	172,2	174,8	101,5
Vobkent	143,6	145,9	101,6
G'ijduvon	311,8	317,1	101,7
Kogon	81,1	82,6	101,8
Qorako'l	167,4	169,7	101,4
Qorovulbozor	19,1	19,5	102,1
Peshku	126,7	128,9	101,7
Romitan	146,3	148,9	101,8
Jondor	179,4	182,3	101,6
Shofirkon	181,7	184,3	101,4

Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

2023- yil 1- yanvar holatiga




2023-yilning 1-yanvar holatiga Buxoro viloyati aholisining kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **75,4** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **74,5** yoshga, ayollar uchun esa **76,2** yoshga teng. Shahar va qishloq joylar uchun kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi bir xil, ya'ni **75,4** yoshni tashkil etgan.

74,5 yosh

76,2 yosh

Buxoro viloyati bo'yicha aholi zichligi

2023- yil 1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



Buxoro viloyatida 2023- yil 1- yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **50,0** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **1,8** kishiga ortgan (2021- yilda 1 kv.km.ga 49,1 kishi).

Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligini eng yuqori ko'rsatkichi Buxoro shahrida **4 131,4** kishi, Kogon shahrida **3 190,0** kishi, Vobkent tumanida **503,1** kishi, Kogon tumanida **165,2** kishini, Buxoro tumanida **132,4** kishi tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Qorovulbozor tumanida **8,9** kishi, Peshku tumanida **14,8** kishi, Qorako'l tumanida **19,5** kishi, Olot tumanida **31,8** kishi, Jondor tumanida **35,3** kishi, Shofirkon tumanida **49,5** kishini tashkil etgan.

QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR






Peshku

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni

2022- yil yanvar-dekabr, kishi

Buxoro	26,8 %	7 673
G'ijduvon	24,0 %	7 560
Jondor	22,1 %	4 004
Shofirkon	21,7 %	3 964
Qorako'l	22,0 %	3 707
Romitan	22,1 %	3 257
Vobkent	22,0 %	3 185
Buxoro	17,1 %	2 976
Peshku	22,9 %	2 932
Olot	20,9 %	2 137
Kogon	27,5 %	1 733
Kogon	18,3 %	1 495

Tug'ilganlarning taqsimlanishi





Qorovulbozor


22,2 %

428



2022- yil yanvar-dekabr oylarida **45,1** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **22,6** promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2021- yilga nisbatan **0,6** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yilda **22,0** promilleni tashkil etgan).

Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi



2022- yilning yanvar – dekabr oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarda tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha quyidagi ulushga ega bo‘ldi:


- 1 nafar **97,6 %**,
- 2 nafar **2,3 %**,
- 3 va undan ortiq **0,1%**

Tug‘ilgan chaqaloqlar ota-onasining yoshi bo‘yicha taqsimlanishi



2022- yil yanvar-dekabr oylarida tug‘ilgan chaqaloqlar otasining yoshi bo‘yicha **39,4 %** chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, **58,0 %** ining otasi 25-39 yoshlarga hamda **2,6 %** chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, tug‘ilgan chaqaloqlar onasining yoshi bo‘yicha **15,4 %** chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, **78,9 %** ining onasi 25-39 yoshlarga hamda **5,7 %** chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat bo‘lgan.

VAFOT ETGANLAR



Hududlar kesimida vafot etganlar soni

2022- yil yanvar-dekabr, kishi

Buxoro sh.	5,5 ‰	1 577
G‘ijduvon	4,7 ‰	1 466
Qorako‘l	4,9 ‰	829
Shofirkon	4,5 ‰	822
Jondor	4,5 ‰	805
Buxoro	3,7 ‰	643
Romitan	4,0 ‰	592
Vobkent	4,1 ‰	589
Peshku	4,4 ‰	563
Olot	4,4 ‰	453

Vafot etganlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart



Erkaklar	Ayollar
1 244	997
55,5%	44,5%

Yanvar-iyun

Erkaklar	Ayollar
2 347	1 915
55,1%	44,9%

Yanvar-sentabr


Erkaklar	Ayollar
3 832	3 135
55,0%	45,0%




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **9,1** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **4,5** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan ko‘rsatkich **0,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida **4,7** promille bo‘lgan).

O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

yanvar-sdekabr






2022- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining **61,6 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,4 %** i – o'simtalardan, **5,5 %** i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **5,6 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,6 %** i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **1,0 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **13,3 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR

Nikohlar soni, ming birlik



**Hududlar kesimida nikohlar soni va
koeffitsiyenti**

2022- yil yanvar-dekabr, birlik

Buxoro sh.	9,2 ‰	2 640
G'ijduvon	8,2 ‰	2 586
Shofirkon	8,8 ‰	1 614
Jondor	8,3 ‰	1 493
Qorako'l	8,7 ‰	1 471
Vobkent	7,9 ‰	1 143
Romitan	7,6 ‰	1 116
Peshku	8,5 ‰	1 086
Buxoro	6,1 ‰	1 058
Olot	8,3 ‰	845
Kogon	6,6 ‰	544
Kogon sh.	7,7 ‰	486
Qorovulbozor	7,5 ‰	145

Nikohlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart

Shahar	Qishloq
1 548	2 160
41,8%	58,2%

Yanvar-iyun

Shahar	Qishloq
2 902	3 629
44,4%	55,6%

Yanvar-sentabr

Shahar	Qishloq
4 704	6 203
43,1%	56,9%


Yanvar-dekabr

Shahar	Qishloq
6 113	10 114
37,7%	62,3%

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **16,2** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **8,1** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,5** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida **8,6** promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR

Nikohdan ajralishlar soni, mingbirlik




Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-dekabr, birlik


Buxoro sh.	2,3 ‰	651
G'ijduvon	1,1 ‰	349
Qorako'l	1,2 ‰	204
Jondor	1,1 ‰	192
Buxoro	1,1 ‰	189
Shofirkon	1,0 ‰	177
Romitan	1,2 ‰	172
Vobkent	1,0 ‰	145
Kogon sh.	2,0 ‰	128
Kogon	1,4 ‰	118
Peshku	0,9 ‰	112
Olot	1,0 ‰	104
Qorovulbozor	1,0 ‰	20

Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi


Yanvar-mart




Yanvar-iyun



Yanvar-sentabr



Yanvar-dekabr




2022- yil yanvar-dekabr oylarida **2,6** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,3** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,2** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yil yanvar-dekabr oylarida **1,1** promille bo'lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-dekabr



farzandsiz
ajrashgan



2022- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda jami nikohdan ajrashganlarning 29,7 % i farzandsiz, 41,6 % i bitta farzand bilan va 28,7 % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi



Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida erkaklar uchun **36,0** yoshni, ayollar uchun **33,0** yoshni tashkil etgan. Nikohdan ajrashganlarning eng katta ulushi **29** yoshlilarga to‘g‘ri kelgan, y‘ani jami nikohdan ajrashganlarning **5,8** % ini tashkil etgan.

AHOLI MIGRATSIYASI

2022- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **6 236** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **6 221** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **15** kishini tashkil etdi. Ko'chib ketganlar soni jami **9 273** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **9 198** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **75** kishini tashkil etib, migratsiya saldosini minus **3 037** kishini tashkil etdi.

Buxoro viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni
2022- yil yanvar-dekabr, kishi

	Ko'chib kelganlar			Ko'chib ketganlar		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		respublika-ning boshqa hududlaridan	xorijiy mamlakatlardan		respublika-ning boshqa hududlariga	xorijiy mamlakatlarga
Buxoro viloyati	6 236	6 221	15	9 273	9 198	75
Buxoro sh.	1 584	1 578	6	2 263	2 240	23
Kogon sh.	494	494		456	452	4
<i>tumanlar:</i>						
Olot	127	124	3	377	377	
Buxoro	1 010	1 009	1	760	757	3
Vobkent	257	257		582	579	3
G'ijduvon	617	614	3	1 344	1 326	18
Kogon	739	739		463	462	1
Qorako'l	162	160	2	770	770	
Qorovulbozor	262	262		183	175	8
Peshku	169	169		322	319	3
Romitan	243	243		359	347	12
Jondor	202	202		497	497	

Shofirkon


370

370

897

897

JAMI KO'CHIB KELGANLAR



■ Ko'chib kelganlar, ming kishi
● O'sish sur'ati, % da




Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-dekabr, kishi


Buxoro sh.	5,5 %	1 584
Buxoro	5,8 %	1 010
Kogon	9,0 %	739
G'ijduvon	2,0 %	617
Kogon sh.	7,8 %	494
Shofirkon	2,0 %	370
Qorovulbozor	13,6 %	262
Vobkent	1,8 %	257
Romitan	1,6 %	243
Jondor	1,1 %	202
Peshku	1,3 %	169
Qorako'l	1,0 %	162
Olot	1,2 %	127

Ko'chib kelganlarning taqsimlanishi


Yanvar-mart




Yanvar-iyun



Yanvar-sentabr




Yanvar-dekabr



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 6,2 mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti 3,1 promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan 0,3 promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 3,4 promille bo'lgan).

JAMI KO'CHIB KETGANLAR



■ Ko'chib ketganlar, ming kishi
 ● O'sish sur'ati, % da







Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-dekabr, kishi

Buxoro sh.	7,9 %	2 263
G'ijduvon	4,3 %	1 344
Shofirkon	4,9 %	897
Qorako'l	4,6 %	770
Buxoro	4,4 %	760
Vobkent	4,0 %	582
Jondor	2,7 %	497
Kogon	5,7 %	463
Kogon sh.	7,2 %	456
Olot	3,7 %	377
Romitan	2,4 %	359
Peshku	2,5 %	322
Qorovulbozor	9,5 %	183

Ko'chib ketganlarning taqsimlanishi



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **9,3** mingta ko‘chib ketganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib ketish koeffitsiyenti **4,7** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,9** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida **5,6** promille bo‘lgan).

Demografik ko‘rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya‘ni me‘yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Tug‘ilish – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

O‘lim sabablari – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta‘sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya‘ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya‘ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.



Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 71 230-83-16, 65 223-83-37

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 71 230-83-16, 65 223-83-37